

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA YORDAM BERISHDAGI MUAMMOLAR

Salayeva Muborak Saburovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasida professori

Shodmonova Nilufar Maxmudovna

Nizomiy nomidagi O'MPUning Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi I-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17855816>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari (ATEB) bo'lgan bolalarga yordam berish jarayonidagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning maxsus tayyorgarligi yetarli emasligi, metodik va resurs yetishmovchiligi, sinflarning ortiqcha to'ldirilganligi, yordamchi mutaxassislar bilan samarali hamkorlikning sustligi, ota-onalar bilan ishlashdagi kamchiliklar va bolalarning psixologik-xulqiy xususiyatlari ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhitni takomillashtirish, ATEB bolalarga sifatli pedagogik yordam ko'rsatish va ularning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim, pedagogik yordam, muammolar, metodik resurslar.

Аннотация: В статье анализируются проблемы оказания помощи детям с особыми образовательными потребностями (ООП) в начальной школе. Результаты исследования показывают, что недостаточная специальная подготовка учителей, нехватка методической и ресурсной базы, переполненность классов, неэффективное взаимодействие со специалистами поддержки, недостатки в работе с родителями, а также психологические и поведенческие особенности детей снижают эффективность образовательного процесса. В статье разрабатываются научно-практические рекомендации по устранению этих проблем. Результаты исследования способствуют совершенствованию инклюзивной среды в начальном образовании, оказанию качественной педагогической помощи детям с ООП и содействию их социальному развитию.

Ключевые слова: начальное образование, особые образовательные потребности, инклюзивное образование, педагогическая помощь, проблемы, методические ресурсы.

Abstract: This article analyzes the problems in the process of providing assistance to children with special educational needs (SEN) in primary schools. The results of the study show that insufficient special training of teachers, lack of methodological and resource resources, overcrowding of classes, poor effective cooperation with support specialists, shortcomings in working with parents, and psychological and behavioral characteristics of children reduce the effectiveness of the educational process. The article develops scientific and practical recommendations to eliminate these problems. The results of the study serve to improve the inclusive environment in primary education, provide high-quality pedagogical assistance to SEN children, and support their social development.

Keywords: primary education, special educational needs, inclusive education, pedagogical assistance, problems, methodological resources.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv global tendensiyaga aylangan bo'lib, har bir bolaga, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga sifatli, qulay va teng imkoniyatli ta'lim muhiti yaratish davlat siyosati darajasida muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham "Inklyuziv ta'lim to'g'risida"gi qarorlar va davlat dasturlari qabul qilinishi ta'lim jarayonida maxsus ehtiyojli bolalarga sharoit yaratish, ularni ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash va shaxs sifatida rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi [1, 2].

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar sonining ortib borayotgani, ularning psixofiziologik rivojlanishidagi farqlar, emotsional, kognitiv yoki xulq-atvor xususiyatlarining o'ziga xosligi ta'lim jarayonida individual yondashuvga ehtiyojni kuchaytiradi [3, 4]. Ayniqsa, kichik maktab yoshi davri — bolalarning o'qishga, muloqotga, jamoadagi faoliyatga moslashuvi shakllanadigan eng muhim bosqich bo'lgani uchun ularning ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri yordam ko'rsatish katta ahamiyatga ega [5, 6].

Shu bilan birga, ATEB bolalar bilan ishlashda bir qator jiddiy muammolar mavjud:

- pedagoglarning maxsus tayyorgarligi va kompetensiyasining yetarli emasligi;
- moslashtirilgan o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va texnik vositalarning cheklanganligi;
- ta'lim muassasalarida psixolog, defektolog, logoped kabi mutaxassislar sonining kamligi;
- ota-onalarning inklyuziv ta'lim to'g'risidagi bilimlari yetarli emasligi;

• ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha amaliy tajriba kamligi.

Mazkur muammolar boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'quv jarayonida to'laqonli ishtirok etishiga, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishi va rivojlantirishiga to'sqinlik qiladi [7, 8]. Shu sababli ularni aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar taklif etish masalasi ta'lim tizimi uchun nihoyatda dolzarbdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar shaxs sifatida shakllanishning eng muhim bosqichida bo'lib, aynan shu davrda ko'rsatiladigan pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun maktabda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar (ATEB) ta'limini tashkil etish, ularni qo'llab-quvvatlash va boshlang'ich sinflarda samarali yordam berish masalalari xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Adabiyotlar sharhi ko'rsatadiki, so'nggi yillarda inklyuziv ta'limning mazmuni, metodlari, pedagogik yondashuvlari va muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar sezilarli darajada oshgan.

Avvalo, **UNESCO, UNICEF, WHO** kabi xalqaro tashkilotlar ta'limda inklyuzivlikning asosiy tamoyillarini belgilab, barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni global darajadagi eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etadi. Bu hujjatlarda ATEB o'quvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual ta'lim dasturlari va moslashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

L.S.Vigotskiy, A.S.Leontev va D.B.Elkonin kabi klassik psixologlar bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlar ta'lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish zaruriyatini ta'kidlashgan. Ayniqsa, Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi ATEB o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-metodik asosini tashkil etadi [11, 12].

Mahalliy olimlardan **N.Ziyodova, F.Qodirova, M.Jo'rayev, D.Raxmonov, O.Musurmonovalarning** ilmiy ishlari O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash metodikasi, pedagoglarning kompetensiyasi va ta'lim muassasalarida zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda

aynan boshlang'ich sinflarda moslashtirilgan ta'lim jarayonining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Ko'plab adabiyotlarda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratiladi:

1. **Pedagogik muammolar.** Ko'pgina tadqiqotchilar, jumladan, A.Kasimova (2021) va J.Sleelar (2019) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maxsus pedagogika, defektologiya, logopediya va psixologiya bo'yicha yetarli bilim va amaliy tajribaga ega emasligini asosiy muammo sifatida qayd etishadi [13, 14].

2. **Metodik vositalarning yetishmasligi.** Xalqaro va mahalliy manbalarda, chunonchi, Florian va Black-Hawkinslar (2016) ATEB bolalar uchun moslashtirilgan darsliklar, qo'llanmalar va multimediya vositalarining kamligi yoki mavjud resurslarning amaliyotga mos kelmasligini ta'kidlashadi [15, 16].

3. **Tashkiliy muammolar.** Ko'plab ilmiy manbalarda xorijlik olimlar Friend va Cooklar (2017) tomonidan sinflarning katta sig'imi yordamchi mutaxassis - psixolog, logoped va defektologlarning yetishmasligi hamda ular bilan hamkorlikning sustligi ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi haqida yoritilgan.

4. **Ota-onalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar.** J.Epstein va boshqa tadqiqotchilar ota-onalarning inklyuziv ta'limga munosabati va bilimi yetarli bo'lmaganda bolaga ko'rsatiladigan yordam natijalari pasayishini ta'kidlashadi.

5. **Psixologik muammolar.** ATEB bolalarda ko'pincha o'qishga motivatsiya pastligi, ijtimoiy moslashuv qiyinligi, o'ziga ishonchsizlik kuzatiladi. Smith va Tylerlarning fikriga ko'ra (2020) psixologik qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi [17, 18].

Umumlashtirilgan holda aytganda, ilmiy adabiyotlarning aksariyati boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishi ko'p jihatdan pedagogning kompetensiyasiga, maxsus metodik ta'minotga, maktabdagi resurslar bazasiga va oila-maktab hamkorligining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli bo'lsa-da, amaliyotda joriy etilayotgan mexanizmlar hali to'liq samarali emas. Bu esa mavzuning o'rganilishini va davomiy monitoringini yanada zarur qiladi.

Metodlar: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Muhokama. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni (ATEB)

qo'llab-quvvatlashning yangi bosqichiga olib chiqmoqda. Bunday o'quvchilarning individual imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari va rivojlanish sur'atlaridagi farqlarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Chunki ta'limning inklyuziv tamoyillarga asoslangan shaklda tashkil etilishi barcha o'quvchilarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini, ijtimoiylashuvini va kelajakda jamiyatda munosib o'rin egallashini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ATEB bolalarga yordam berish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, pedagoglarning maxsus pedagogik tayyorgarligi yetarli emasligi, sinflarning haddan ziyod to'ldirilganligi, metodik materiallar va moslashtirilgan o'quv dasturlarining yetishmasligi, defektolog, psixolog kabi mutaxassislar bilan uzviy hamkorlikning sustligi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ota-onalarning inklyuziv ta'lim haqidagi tushunchalari yetarli emasligi ham muammolarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish jarayonida mavjud muammolarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi ta'lim amaliyoti inklyuziv ta'lim tamoyillarini to'liq amalga oshirish imkoniga ega emas. Bu, avvalo, ta'lim tizimidagi tashkiliy, metodik va psixologik omillar bilan bog'liq [19, 20].

✓ Birinchidan, **pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi** masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'qituvchilar, asosan, umumiy pedagogik metodlarga tayanishadi, maxsus pedagogika, logopediya, defektologiya bo'yicha chuqur bilim yetishmasligi esa ATEB bolalarga moslashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etishda qiyinchilik tug'diradi [21, 22]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'qituvchilar dars davomida individual yondashuvni qo'llashda yoki bolalarning psixologik holatini hisobga olishda muammolarga duch kelishadi.

✓ Ikkinchidan, **moslashtirilgan ta'lim resurslari va metodik ta'minotning yetishmasligi** inklyuziv ta'lim samaradorligini cheklaydi. Darsliklar, qo'shimcha materiallar, vizual vositalar, texnik yordamchi qurilmalar yetarli emas yoki mavjud bo'lganlari amaliyot talablariga mos kelmaydi [23, 24]. Bu esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qiladi. Maxsus yordamchi materiallarning yo'qligi o'qituvchining barcha o'quvchilarni bir vaqtning o'zida samarali o'qitish imkoniyatini pasaytiradi.

✓ Uchinchidan, **ta'lim muassasalaridagi tashkiliy muammolar** ATEB bolalar bilan ishlash jarayonini murakkablashtiradi. Sinflarning ortiqcha to'ldirilganligi, psixolog, defektolog, logoped kabi mutaxassislarning

yetishmasligi yoki mavjud mutaxassislar bilan hamkorlikning sustligi bolalarga ko'rsatilayotgan yordam sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi maktablarda inklyuziv ta'lim bo'yicha tizimli monitoring olib borilmagani natijada bu jarayonning samaradorligi baholanmaydi.

✓ To'rtinchidan, **ota-onalar bilan ishlashdagi sustlik** ham muhim omillardan biridir. Ota-onalarning inklyuziv ta'lim to'g'risidagi bilimlarining yetarli emasligi, farzandining imkoniyatlari haqida real tasavvurga ega bo'lmasligi yordam jarayonining uzluksizligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan ota-onalar tomonidan pedagogik talablarning bajarilmasligi bolalarning rivojlanishida sekinlikka sabab bo'ladi [25, 26].

Beshinchidan, **ATEB o'quvchilarning psixologik xususiyatlari**, ular bilan ishlash jarayonini yanada murakkablashtiradi. Bunday bolalarda diqqatning tarqoqligi, mustaqil ishlash ko'nikmalarining sustligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko'p uchraydi [27, 28]. O'qituvchi va mutaxassislar tomonidan yetarlicha psixologik qo'llab-quvvatlash bo'lmaganda, bu xususiyatlar yanada keskinlashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda ATEB o'quvchilar bilan ishlash samaradorligi tizimli tarzda yondashilmaganda pasayadi. Bu jarayonni faqat o'qituvchi zimmasiga yuklash mumkin emas. Ta'lim muassasasi, oila, psixologik xizmat va mahalla hamkorligi bir butun tizim sifatida ishlagan taqdirdagina ijobiy natija kuzatiladi [29, 30].

Umuman olganda, muammolar kompleks xarakterga ega bo'lib, ularni bartaraf etish uchun pedagoglarni muntazam tayyorlash, metodik ta'minotni boyitish, mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ota-onalarni ma'naviy-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat siyosati darajasida inklyuziv ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash zarur.

Natijalar. O'tkazilgan tahlil va adabiyotlarni o'rganish, shuningdek, amaliy tajribalarni solishtirish asosida quyidagi asosiy natijalarga kelindi:

1. **Pedagoglarning kompetensiyasi yetarli emasligi.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'pincha umumiy pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lsa-da, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalari yetarli emas. Bu esa, individual yondashuvni qo'llash va bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilik tug'diradi [31, 32].

2. **Metodik va resurs yetishmovchiligi.** Moslashtirilgan darsliklar, vizual qo'llanmalar, texnik vositalar va multimediya resurslarining yetishmasligi o'quv jarayonini to'liq tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, mavjud metodik vositalar ham har doim amaliy ehtiyojlarga mos kelmaydi [33, 34].

3. **Tashkiliy muammolar.** Sinflarning ortiqcha to'ldirilganligi, yordamchi mutaxassislar (psixolog, logoped, defektolog) sonining yetarli emasligi va ular bilan uzviy hamkorlik yo'qligi ATEB bolalarga yordam ko'rsatishni murakkablashtiradi[35, 36].

4. **Ota-onalar bilan ishlashdagi yetishmovchiliklar.** Ota-onalarning inklyuziv ta'lim haqidagi bilimlari va farzandlari imkoniyatlarini tushunish darajasi past bo'lishi pedagogik jarayonning samaradorligini pasaytiradi [37].

5. **Psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklar.** ATEB bolalarda diqqatni jamlash, mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko'p uchraydi. Yetarli psixologik qo'llab-quvvatlash bo'lmagan hollarda bu muammolar o'quv jarayonining sifatiga salbiy ta'sir qiladi [38, 39].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda ATEB bolalarga yordam berish jarayonida mavjud muammolar kompleks va tizimli xarakterga ega. Ularni bartaraf etish uchun pedagogik kompetensiyani oshirish, metodik ta'minotni boyitish, mutaxassislar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ota-onalarni qo'llab-quvvatlash va davlat siyosati asosida inklyuziv ta'limni mustahkamlash zarur.

Xulosa. Tadqiqot yakunida boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berish jarayonini tahlil qilishda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. **ATEB bolalarga yordam berish dolzarb masala** bo'lib, u boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash hamda inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

2. **Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi**, moslashtirilgan metodik vositalarning cheklanganligi, sinflarning to'ldirilganligi va yordamchi mutaxassislar bilan samarali hamkorlikning sustligi ATEB bolalarga sifatli ta'lim ko'rsatishni qiyinlashtiradi.

3. **Ota-onalar bilan ishlashdagi yetishmovchiliklar** va bolalarning psixologik-xulqiy xususiyatlari ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli ota-onalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur.

4. **Muammolar kompleks va tizimli xarakterga ega**, shuning uchun ularni hal qilish bo'yicha choralar ham tizimli, multidistsiplinar yondashuv asosida bo'lishi lozim.

Ushbu xulosalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda ATEB bolalarga yordam ko'rsatish jarayonini takomillashtirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy

va huquqiy jihatdan ham muhimdir. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan harakatlar bolalarning shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'limning sifatini oshirish va jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Salayeva M.S., Nurullayeva D.K. Inklyuziv ta'lim sifatini oshirish istiqbollari / "Yangi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.404-408.
- 2.Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Nogironli bo'lgan shaxslarning ijtimoiylashuvini ta'minlashning ahamiyati / "Yangi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.408-412.
- 3.Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Shaxs ruhiy salomatligiga xavf soluvchi omillar / "Yangi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.411-416.
- 4.Salaeva M.S., Djumabayeva M. Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati / "Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш: янги шакллар ва таълим мазмуни" мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / Низомий номидаги ТДПУ. - Тошкент. 2020 йил 13 май.– Электрон тўплам. - Б.303-305.
- 5.Salayeva M.S., Abduhakimova M. (BT S/5 201-guruh) Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonidagi muammolar / "XXI asr шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар" мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь.
- 6.Salayeva, M. S., & Abduhakimova, M. (2023). Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonidagi muammolar // Results of National Scientific Research International Journal, 2(1). -Pp. 69-79. Retrieved from <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/1470>
- 7.Salayeva M.S., Asrorova M.A. Depressiya holatlarida shaxs ruhiyatining buzilishi va xulq-atvorning o'zgarishi psixologik muammo sifatida / Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo'llari ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. - T.: "QK Akademiyasi", 2023. - B. 253-256.

- 8.Salayeva M. S., Abduhakimova M. Psixodiagnostik tekshiruv jarayonining muhim jihatlari / Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo'llari ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. - T.: "QK Akademiyasi", 2023. - B. 211-214.
- 9.Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific Progress Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. - Pp 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
- 10.Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - С.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf
- 11.Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // Problems And Scientific Solutions. - Australia, Melbourne. 2022. - B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>
- 12.Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Asr kasalligi: depressiyaga qarshi qanday kurashish mumkin? / "Yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuklikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari" mavzusi-dagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.: TDPU, 2023. - B.1121-1124.
- 13.Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Psixolog pedagogik jarayondagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qiluvchi mediator sifatida / 2-Respublika iqtidorli talabalar ilmiy konferen-siyasi materiallari to'plami. Toshkent amaliy fanlar universiteti. -B. 174-181.
- 14.Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Psixosomatika psixologik muammolarni hal qiluchi yo'nalish sifatida / 2-Respublika iqtidorli talabalar ilmiy konferen-siyasi materiallari to'plami. Toshkent amaliy fanlar universiteti. -B. 11-15.
- 15.Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali. Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.
- 16.Салаева М.С., Шаюнусова Ф.С. Депрессив ҳолатдаги шахсларга психологик ёндашув услублари / "Yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuklikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Toshkent: TDPU, 2023. - B.838-841.
- 17.Салаева М.С., Халилова Ш.Т. Ўспиринларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари / "Психологияни ўқитишда

замонавий инновацион ёндашув: психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар” номли Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ “Психология” ўқув-илмий маркази. 2019 йил 24 декабрь. – Б.13-16.

18.Салаева М.С. Психолог касбий компетентлигини ривожлантириш мазмуни, шакл ва услублари / «Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики» Материалы научно-практической конференции, посвященной Году внимания и заботы о старшем поколении. Филиал МГУ имени В.М.Ломоносова. 15-16 апреля 2020 года. Том X. IV часть, 5 секция. – С.118-122.

19.Салаева М.С. Психолог касбий компетентлигини шакллантириш тамойиллари ва техникалари / "Педагогик инновациялар ва юқори самарадорликка етакловчи таълимий ғоялар" мавзусидаги Республика илмий-амалий онлайн конференцияси. Сурхондарё ВХТХҚТМОҲМ. -Термез. 2020 йил 15 май. – Б.764- 768.

20.Салаева М.С. Педагогнинг касбий компетентлиги ва профессионализмига психологик ёндашув / “Психология фани ва ёшларнинг ривожланиши” мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / “International Psychology Summit” (Халқаро психология САММИТИ). ЎЗМУ. 2020 йил 27-28 июль. – Б.205- 211.

21.Салаева М.С. Специфика профессиональной деятельности учителя начальных классов / "Мактабгача таълимда оила, мактаб ва ОТМ ҳамкорлиги: муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Республика илмий-амалий онлайн конференция / Муқимий номидаги Қўқон давлат педагогика институти. Қўқон - 2020. Электрон тўплам. - Б.169-172.

22.Салаева М.С., Павлова М.В. Роль арттерапии в образовательном процессе // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). - С.1099-1103.

https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf